NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

«QUTADG‘U BILIG» ASARINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA TARJIMALARINING AHAMIYATI

Urinova Gulmira Sharifjanovna
NamDU akademik litseyi
Ingliz tili fani o‘qituvchisi
E-mail:gulteacher84@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostoni jahon adabiy jarayonidagi o‘rni, qo‘lyozmalarining ilmiy o‘rganilishi, asosiy tadqiqotchilar va tarjimonlarning hissasi tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Asar tarkibidagi adolat, davlat, aql va qanoat tushunchalari hamda ularning boshqa tillarga ko‘chirilishida yuzaga keladigan semantik, poetik va madaniy masalalar izohlanadi. Vamberi, Radlov, Arat, Fitrat, Karimov, Dankoff, Ivanov va boshqa olimlar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Natijalar «Qutadg‘u bilig» tarjimasi faqat til almashtirish emas, balki o‘rta asr turkiy tafakkurini qayta sharhlash jarayoni ekanini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *Yusuf Xos Hojib, Qutadg‘u bilig, Qoraxoniylar, jahon adabiyoti, matnshunoslik, qiyosiy tarjimashunoslik, adolat, ilmiy-tanqidiy matn.*

РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “КУТАДГУ БИЛИГ” В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ЗНАЧЕНИЕ ЕГО ПЕРЕВОДОВ

Аннотация: *В статье рассматриваются место поэмы Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг» в мировой литературе, история изучения рукописей, вклад исследователей и переводчиков. На основе историко-сопоставительного анализа раскрываются концепты справедливости, государства, разума и умеренности, а также семантические и культурные трудности их передачи на других языках. Особое внимание уделено работам Вамбери, Радлова, Арата, Фитрата, Каримова, Данкоффа и Иванова.*

Ключевые слова: *Юсуф Хас Хаджиб, Кутадгу билиг, мировая литература, рукописи, перевод, текстология, справедливость.*

THE ROLE OF “QUTADGU BILIG” IN WORLD LITERATURE AND THE SIGNIFICANCE OF ITS TRANSLATIONS

Abstract: *The article examines the significance of Yusuf Khass Hajib’s Kutadgu Bilig in world literature, the scholarship on its manuscripts, and the contributions of major editors and translators. Through historical and comparative analysis, it considers the concepts of justice, fortune, wisdom, and contentment and the challenges of their semantic and literary transfer across languages. Special emphasis is given to Vámbéry, Radloff, Arat, Fitrat, Karimov, Dankoff, and Ivanov. The study argues that translation of the poem is an act of cultural interpretation as well as linguistic transfer.*

Keywords: *Kutadgu Bilig, Yusuf Khass Hajib, world literature, manuscript studies, translation studies, medieval Turkic literature, justice.*

Kirish

XI asr turkiy yozma adabiyotidagi eng muhim burilishlardan biri Yusuf Xos Hojib tomonidan «Qutadg‘u bilig» dostonining yaratilishi bilan bog‘liq. Taxminan 1069–1070-yillarda bitilgan ushbu asar Qoraxoniylar davlatining siyosiy va madaniy muhitida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, uning g‘oyalari muayyan zamon va hudud chegarasidan tashqariga chiqadi. Doston hukmdorning axloqiy mas’uliyati, bilim va aqlning davlat hamda jamiyat hayotidagi vazifasi, insoniy saodatning mezonlari singari mavzularni badiiy suhbat va ramziy timsollar vositasida bayon etadi. Shu sababli uni faqat pand-nasihat to‘plami sifatida emas, siyosiy-falsafiy va badiiy tafakkur uyg‘unligi sifatida o‘rganish lozim [1,2].

«Qutadg‘u bilig» nomi ko‘pincha «saodatga eltuvchi bilim» ma’nosida sharhlanadi. Biroq «qut»ning tarixiy semantikasi baxt, saodat, davlatga daxldor iqbol va legitimlik kabi ma’no qatlamlarini ham o‘z ichiga oladi. Tarjimada ushbu ko‘p ma’nolilik muhim: bir til «saodat»ni, boshqasi «shohona sharaf» yoki «foydali bilim»ni asosiy urg‘u sifatida tanlashi mumkin. Demak, asarning turli tillardagi nomlarining o‘zi ham uni qabul qilish tarixi haqida ma’lumot beradi [1,4].

Jahon adabiyotidagi ahamiyatni aniqlash uchun asarning yozilgan davri, janriy oʻziga xosligi, gʻoyalar tizimi va xalqaro ilmiy muomalaga kirish tarixini birga baholash zarur. Qoraxoniylar madaniyati islomiy tafakkur, qadimgi turkiy davlat an'analari hamda Sharq adabiy merosi bilan muloqotda shakllangan. Dostonda hukmdorlik madaniyati boʻyicha fikrlar axloqiy tarbiya bilan uzviy bogʻlanib, siyosiy qarorlarning ma'naviy oʻlchoviga e'tibor qaratiladi.

Maqolaning maqsadi «Qutadgʻu bilig»ning jahon adabiyotida tutgan oʻrnini qoʻlyozmashunoslik, tadqiqotlar tarixi va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tushuntirish, asosiy olimlar xizmatini dalillarga tayangan holda tizimlashtirish hamda tarjimalarning ilmiy-ma'naviy ta'sirini aniqlashdir. Shu maqsadga muvofiq uch savol qoʻyiladi: asar qanday xususiyatlari tufayli xalqaro ahamiyatga ega, matnning ilmiy tiklanishida kimlarning ishlari muhim boʻlgan, tarjimalar mazmun va poetik shaklni qay darajada turlicha ochib bergan?

Material va metodlar

Tadqiqot materiali sifatida «Qutadgʻu bilig»ning ilmiy nashrlari, tarjimalari va unga bagʻishlangan adabiyotshunoslik, turkologiya hamda matnshunoslik tadqiqotlari tanlandi. Asosiy tayanchlar jumlasiga R. R. Aratning 1947-yilgi tanqidiy matni va 1959-yilgi turkcha tarjimasi, R. Dankoffning 1983-yilgi inglizcha tarjimasi, Q. Karimovning 1971-yilgi oʻzbekcha nashri, S. Ivanovning 1983-yilgi ruscha tarjimasi, A. Dilacharning va A. B. Ercilasunning maxsus tadqiqotlari kiradi[1,8].

Tarixiy-genetik metod orqali qoʻlyozmalarning topilishi va nashr etilishi ketma-ketligi koʻrib chiqildi. Matnshunoslik yondashuvi yordamida faksimile, transkripsiya, tanqidiy matn hamda badiiy tarjima oʻrtasidagi farq tushuntirildi. Qiyosiy-tarjimashunoslik yondashuvi tushuncha, obraz, uslub va janrning turli tillarda qayta ifodalanishidagi asosiy muammolarni ajratishga xizmat qildi. Asardagi toʻrt ramziy qahramon ifodalagan adolat, davlat, aql va qanoat tushunchalari hamda ularning oʻzaro munosabati tahlil qilindi.

Mazkur maqola «Qutadgʻu bilig» asariga oid ilmiy tadqiqotlar, nashrlar va tarjimalarni oʻrganish hamda ularni qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi. Tadqiqotda yangi qoʻlyozmalarni mustaqil tekshirish yoki barcha tarjimalarni soʻzma-soʻz solishtirish maqsad qilinmagan. Asosiy e'tibor mavjud ilmiy manbalarni umumlashtirish, olimlar va tarjimonlarning xizmatlarini aniqlash hamda asarning turli tillarda qanday talqin qilinganini yoritishga qaratildi. Shuningdek, asarning faksimile nashri, ilmiy-tanqidiy matni va tarjimasi bir-biridan farqlanadi. Faksimile-qoʻlyozmaning asl koʻrinishdagi nusxasi, ilmiy-tanqidiy matn-turli qoʻlyozmalarni qiyoslash asosida tayyorlangan matn, tarjima esa asar mazmunini boshqa tilda ifodalashdir. Tarjimaning qayta nashr etilishi yangi tarjima yaratilganini anglatmaydi. Shu sababli maqolada sana va ilmiy ma'lumotlarni aniqlashda ishonchli akademik manbalarga tayanildi [9,10]. Bunday yondashuv asarning oʻrganilish tarixini toʻgʻri yoritish, qoʻlyozmalarni tadqiq etgan olimlar bilan tarjimonlarning hissasini farqlash va «Qutadgʻu bilig»ning jahon adabiyotidagi ahamiyatini faqat tarjimalar soni bilan emas, balki ilmiy oʻrganilishi va turli madaniyatlarda talqin qilinishi bilan ham baholash imkonini beradi.

Natijalar

Qoʻlyozmalarning aniqlanishi va ilmiy matnning shakllanishi. Dostonning bugungi kungacha yetib kelgan asosiy nusxalari Hirot (Vena), Qohira va Fargʻona (Toshkent) qoʻlyozmalaridir. Bu nusxalar grafika va matniy variantlar jihatidan farq qilishi sababli bitta manbaga koʻr-koʻrona tayanib oʻqish yetarli emas. Vena nusxasi uygʻur yozuvida, qolgan asosiy nusxalar arab yozuvida koʻchirilgan. Bir xil soʻzning turlicha oʻqilishi, ayrim satrlardagi tafovutlar va nusxalardagi xatolar ilmiy-tanqidiy tekshiruvning ahamiyatini oshiradi [9,10].

1825-yilda fransuz sharqshunosi Amede Jaubert Hirot-Vena nusxasi haqida ma'lumot berib, asarga Yevropa ilmiy muhitining e'tiborini qaratdi. 1870-yilda venger turkologi Herman Vamberi matndan parchalar va nemischa tarjima nashr etdi. Vamberining ishi toʻliq tarjima boʻlmasa-da, dostonning til va mazmun xususiyatini Yevropadagi kitobxonlar uchun tushunarli qilishda dastlabki amaliy qadam boʻldi. Keyinchalik Vasiliy Radlov 1890-yillardan boshlab nashr va tarjima ishlari bilan matnshunoslikni rivojlantirdi [9,10].

Fargʻona nusxasining XX asrdagi ilmiy taqdiri ham alohida diqqatga loyiq. Zeki Validiy Toʻgʻonning 1913-yildagi aniqlashi va Abdurauf Fitratning 1925-yilda qoʻlyozmani qayta topib ilmiy muomalaga olib kirishi bu yodgorlikni oʻrganish uchun hal qiluvchi boʻldi. Bu jarayon faqat tarixiy topilma boʻlib qolmay, matnning boshqa nusxalardagi oʻqilishlarini tekshirish imkoniyatini kengaytirdi. Fitrat faoliyati oʻzbek milliy filologik maktabining qoʻlyozma merosni ilmiy oʻrganishga qoʻshgan hissasini koʻrsatadi [10,11].

1942-1943-yillarda uch nusxaning qoʻlyozmaning tasviriy nusxasi (facsimile) nashrlari chop etilishi tadqiqotchilar uchun asl matnni bevosita qiyoslashni yengillashtirdi. Abdulkodir Inonning Hirot nusxasi bilan bogʻliq kirish tadqiqoti asarning tarixiy va til xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi. 1947-yilda Rashid Rahmati Aratning uch qoʻlyozmaga tayangan tanqidiy matni nashr etildi. U 1959-yilda zamonaviy turkcha tarjimani ham taqdim etdi. Arat yaratgan matn keyingi xalqaro tarjimalar uchun asosiy tayanchlardan biriga aylandi [1,2,9].

1979-yilda Kemal Eraslan, Osman Fikri Sertkaya va Nuri Yuce tomonidan tuzilgan indeks doston leksikasini sistematik kuzatishga imkon berdi. Indeksning oʻzi tarjima emas: unda soʻzlarni izlash, shakllar va ma'nolarni

aniqlashtirish vazifasi birinchi o‘rinda turadi. Bunday vosita tarjimonlar uchun ham zarur, chunki o‘rta asr leksik birliklarini hozirgi so‘zlarga avtomatik almashtirish ko‘pincha tarixiy ma’nolarni yo‘qotadi [3].

Ilmiy maktablarning ko‘payishi. Turkiya ilmiy muhitida Agop Dilachar 1972-yilda asarning til, tarix va mazmuniga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot e’lon qildi. Ahmet Bican Ercilasunning 1984-yilgi fe’l grammatikasiga oid ishi esa «Qutadg‘u bilig»ning lingvistik imkoniyatlari qanday kengligini namoyon etdi. Mazkur ishlar dostonga faqat badiiy g‘oya nuqtayi nazaridan emas, tarixiy grammatik material sifatida ham murojaat qilish mumkinligini isbotlaydi [6,7,10].

O‘zbekistonda Qayum Karimovning 1971-yilgi ilmiy nashri asosiy bosqichlardan biridir. Asarning hozirgi o‘zbek tilida tushunilishi va qadimgi til qatlamlarini o‘quvchi anglay olishi uchun transkripsiya va talqin zarur edi. Keyingi davrda Boqijon To‘xliyev dostonning adabiy-estetik, axloqiy va ta’limiy mohiyatini ommalashtirishga hissa qo‘shdi. Natan Mallayev hamda tilshunoslar G‘ani Abdurahmonov, Qosimjon Sodiqovlarning ilmiy yo‘nalishlari esa uni o‘zbek adabiyoti va tilining tarixiy taraqqiyoti kontekstiga bog‘ladi [5,11].

«Qutadg‘u bilig» asarining turli tillarga tarjima qilinishi uning xalqaro miqyosda o‘rganilishi va keng tanilishida muhim o‘rin tutadi. Tarjimalar orqali XI asr turkiy adabiyotining boyligi, Yusuf Xos Hojibning axloqiy-falsafiy qarashlari hamda davlat boshqaruvi haqidagi fikrlari boshqa xalqlarning kitobxonlari va tadqiqotchilariga yetib bordi. Shu jihatdan tarjima asarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish bilangina cheklanmay, turkiy madaniy merosni xalqaro ilmiy va adabiy muomalaga olib kiruvchi vosita hisoblanadi.

Nemischa dastlabki ilmiy tarjima va nashrlardan so‘ng asarning xalqaro til maydoni kengaydi. Robert Dankoffning 1983-yilda chop etilgan «Wisdom of Royal Glory» inglizcha tarjimasi ilmiy kirish va izohlar orqali anglofon o‘quvchining doston bilan ishlashini osonlashtirdi. Sergey Ivanovning 1983-yilgi «Blagodatnoye znaniye» ruscha tarjimasi esa asarning rus tilidagi badiiy qabuliga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu ikki tarjima bir yil chop etilgan bo‘lsa ham, tanlangan so‘z, sintaksis va uslub yechimlari bir xil emas [4,8].

Turkiy tillardagi tarjima va moslashtirishlar asarning o‘z madaniy yaqinligi doirasida ham qayta anglanishini ko‘rsatadi. Qozoq tilida Asqar Egeubayevning ishlari, uyg‘ur tilidagi jamoaviy nashrlar va turkchadagi zamonaviy talqinlar til qardoshligi barcha ma’nolarni avtomatik saqlashini anglatmasligini tasdiqlaydi. Qadimgi turkiy ma’nolar zamonaviy tillarda torayishi, kengayishi yoki boshqa uslubiy tus olishi mumkin. Shu bois qardosh tillardagi tarjimada ham tarixiy-lug‘aviy sharh muhimdir.

Xitoycha tarjimalar va boshqa tilga ko‘chirish tajribalari dostonda ilgari surilgan axloqiy va boshqaruvga oid g‘oyalarni turli intellektual an’analarga olib kirdi. Biroq bilvosita tarjimalarda ya’ni asliyatdan emas, mavjud vositachi tarjimadan foydalanilganda ma’no siljishi xavfi ortadi. Shuning uchun tarjimaning qaysi tayanch matnga asoslangani, matn to‘liq yoki tanlangan parchalardan iboratligi hamda poetik shaklga qanday munosabat bildirilgani bibliografik tavsifda aniq qayd etilishi kerak.

Dostonning markazida to‘rt ramziy obraz turadi: Kuntug‘di-adolat, Oyto‘ldi-davlat yoki iqbol, O‘gdulmish-aql va idrok, O‘zg‘urmish-qanoat hamda ruhiy uyg‘oqlik. Ularning muloqotlari hayotiy va siyosiy masalalarni turli axloqiy pozitsiyalardan ko‘rib chiqadi. Ushbu dialogiklik asarni bir yoqlama buyruq matniga aylantirmaydi: savol, javob, e’tiroz va tushuntirish vositasida badiiy fikr taraqqiy etadi [1,11].

Ta’lim, ilm, til odobi, maslahatchilik, hukmdor va fuqaro munosabati, moddiy manfaatning chegarasi haqida bildirilgan fikrlar madaniyatlararo muloqotga mos mavzulardir. Ammo mazkur umumiylik tarixiy farqlarni yo‘qotmaydi: muallif qarashlarini zamonaviy demokratiya yoki boshqaruv nazaryalari bilan to‘liq tenglashtirish o‘sha davrning tarixiy xususiyatlarini notog‘ri talqin qilishga olib keladi. Eng to‘g‘ri yo‘l asarni o‘z davri siyosiy-axloqiy fikrining yuksak namunasi sifatida baholab, bugungi zamon uchun dolzarb jihatlarini ehtiyotkorlik bilan qiyoslashdir.

Muhokama

Yozma yodgorlikning jahon adabiyotiga mansubligini faqat mashhurlik yoki tarjimalar miqdori hal qilmaydi. Uning badiiy shakli, madaniylararo ko‘chuvchan g‘oyalari, qiyosiy o‘qishga ochiqligi va tadqiqot tarixidagi salmog‘i ham muhim. «Qutadg‘u bilig» tarixan Qoraxoniylar madaniyatiga daxldor bo‘lsa-da, axloqiy boshqaruv va inson saodati haqidagi muammolarni turli madaniyat vakillari anglay oladigan badiiy timsollarda taqdim etadi.

Dostonni «hukmdorlar uchun o‘git» yoki «mirror for princes» janri doirasida o‘qish foydalidir. Chunki unda hokimiyat qanday qo‘lga kiritilishi emas, undan qanday adolatli foydalanish va hokimiyat egasi qanday fazilatga ega bo‘lishi kerakligi so‘raladi. Shu bilan birga, «Qutadg‘u bilig»ni Sharqdagi boshqa nasihatnoma an’analarining oddiy nusxasi deyish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. U turkiy she’riy til, ramziy qahramonlar va o‘ziga xos axloqiy dunyoqarash orqali mustaqil badiiy tajriba yaratadi.

«Qut» tushunchasining «fortune», «royal glory», «saodat» kabi shakllarda aks etishi talqinning turli yo‘nalishlarini ochib beradi. Masalan, «royal glory» siyosiy legitimlik va hukmdorlik masalasini kuchaytirsa, «saodat» shaxsiy va ijtimoiy farovonlikka e’tiborni oshiradi. Bu yondashuvlardan hech biri o‘z-o‘zidan yagona mutlaq ekvivalent emas ular tarixiy semantik ko‘lamning turli qirralarini yoritadi.

«Davlat» so‘zi ham tarjimada murakkab ba’zi kontekstlarda u siyosiy tuzilma, ba’zilarida iqbol, baxt yoki inoyat ma’nosiga yaqinlashadi. «Aql» faqat intellektual qobiliyat emas, maslahatni idrok etish va amaliy oqilonalik bilan bog‘lanadi. «Qanoat» esa faqat moddiy kamtarlik emas, nafsni boshqarish, ichki muvozanat va axloqiy mustaqillikni ham anglatadi. Shuning uchun tarjimon ko‘pincha qisqa so‘z bilan kifoyalanmay, izoh va sharhga ehtiyoj sezadi.

Doston she’riy tuzilishga ega bo‘lgani sababli uni tarjima qilishda ma’no, ohang, ritm va stilistik vazn o‘rtasida muvozanat topish talab etiladi. Nasriy ilmiy tarjima tushunchalarni izohlash imkoniyatini kengaytiradi, ammo poetik jozibani qisqartirishi mumkin. She’riy tarjima o‘quvchi uchun badiiy yaxlitlikni saqlashga intiladi, biroq ba’zan so‘z tanlash imkoniyatlarini cheklaydi. Dankoff va Ivanov tarjimalarini qiyosiy o‘rganish bu ikki maqsadning qanday turlicha hal etilishini ko‘rsatadigan samarali yo‘nalishdir.

Matnshunoslik xatolari tarjimaga ham ko‘chishi mumkin. Arat ilmiy-tanqidiy matni mustahkam poydevor yaratganiga qaramay, tarixiy leksikologiyaning rivojlanishi ayrim murakkab so‘zlar yuzasidan yangi talqinlarni yuzaga keltirdi. Semih Tezcanning indeks haqidagi tanqidiy kuzatishlari va keyingi tilshunoslik ishlari shu jihatni eslatadi tanqidiy matn ilmiy ishning yakuni emas, balki keyingi izlanishlar uchun asosdir [3,12].

Olimlarning ilmiy faoliyati va asarni o‘rganishga qo‘shgan xissalari juda katta. Jaubert va Vamberi yodgorlikka dastlabki qiziqish uyg‘otgan, Radlov turkologik matn va tarjima tadqiqotini kengaytirgan, Fitrat milliy qo‘lyozma manbashunosligida muhim vazifani bajargan, Arat ilmiy matn yaratgan, Karimov o‘zbekchadagi ilmiy qabulni kuchaytirgan, Dankoff va Ivanov xalqaro auditoriyani kengaytirgan. Bu ketma-ketlik har bir faoliyat turining boshqasiga tayanch bo‘lishini tushuntiradi. Demak, jahon adabiyotida o‘rin egallash faqat muallif matni tufayli emas, uni saqlagan va tushuntirgan ilmiy avlodlar mehnati orqali ham yuz beradi.

Asarning zamonaviy ta’lim va tadqiqot uchun ahamiyai. Asarning adolat, bilim va mas’uliyatga oid qarashlari adabiyot, tarix, tilshunoslik, falsafa va pedagogika fanlarini bog‘lab o‘qitishda foydalidir. Litsey va oliy ta’lim darslarida bir mavzuning turli tarjimalaridan kichik parchalarni solishtirish o‘quvchining tanqidiy fikrlashi va badiiy nutqqa e’tiborini rivojlantirishi mumkin. Bunda asliyatdagi murakkab terminlarning tarjimada o‘zgarishi mustaqil izlanish uchun aniq savol yaratadi.

Kelgusida qo‘lyozma variantlarini raqamli qiyoslash, terminlar bo‘yicha ko‘p tilli parallel korpus tuzish, tarjimalarning izoh apparatini solishtirish va tarixiy poetikani o‘rganish istiqbolli vazifalardir. Ayniqsa, o‘zbek, turk, ingliz, rus va boshqa tillardagi nashrlarni bitta tadqiqot maydonida o‘rganish tarixiy semantikaning qaysi qatlamlari saqlanib, qaysilari o‘zgarganini aniqlashga yordam beradi.

Hozircha asarning barcha tillardagi tarjimalari va ularning barcha qayta nashrlarini to‘liq va yagona bibliografiyada jamlash mushkul. Shuningdek, «birinchi tarjima» atamasi parchalar tarjimasi, to‘liq prozaik tarjima va she’riy talqinlarda turli sanani anglatishi mumkin. Mazkur maqolada shuning uchun nashr turi ochiq ko‘rsatiladi; tekshirilmagan «birinchi» yoki «eng mukammal» kabi qat’iy baholardan tiyilinadi. Bu ehtiyotkorlik ilmiy xulosaning ishonchliligini oshiradi.

Xulosa

«Qutadg‘u bilig» XI asr turkiy adabiyotining yirik badiiy-falsafiy asari bo‘lib, adolat, aql, davlat va qanoat munosabatlarini yaxlit axloqiy-siyosiy tizim darajasida talqin etadi. Uning jahon adabiyotidagi ahamiyati qadimgi turkiy til va madaniyatni yoritishi bilangina cheklanmaydi; dostonning inson va hokimiyat mas’uliyati haqidagi savollari qiyosiy o‘rganish uchun keng imkoniyat beradi.

Qo‘lyozmalarning topilishi va tanqidiy nashrlari-Jaubert, Vamberi, Radlov, Fitrat, Arat va boshqa tadqiqotchilar hissasi-matnning xalqaro ilmiy qabuliga yo‘l ochdi. Karimovning o‘zbekcha nashri milliy ilmiy va ta’limiy muhit uchun tayanch bo‘ldi. Dankoff, Ivanov hamda boshqa tarjimonlar esa dostonga xalqaro kitobxonlar murojaatini kuchaytirdilar.

Tarjimalarning ahamiyati faqat dostonni boshqa tilga ko‘chirishda emas; ular «qut», «davlat», «aql», «qanoat» singari tushunchalarning turli madaniyatlarda qanday o‘qilishini ochib beradi. Asarni ilmiy asosda tarjima qilish uchun tanqidiy matnga tayanish, tarixiy semantikani hisobga olish va badiiy shaklni anglash zarur. Shu ma’noda «Qutadg‘u bilig» xalqaro adabiy muloqot hamda turkiy madaniy merosni chuqur anglash uchun doimiy ilmiy ahamiyatga ega.

ASOSIY TADQIQOTCHILAR VA TARJIMONLAR BO‘YICHA UMUMLASHTIRUVCHI JADVAL

Olim / tarjimon	Yil	Asosiy ilmiy xizmat
A. Jaubert	1825	Hirot–Vena nusxasini ilmiy tanishtirish
H. Vamberi	1870	Matn parchalarini nemischa tarjima bilan nashr qilish
V. Radlov	1890 1910	Matn nashrlari va nemischa tarjima
A. Fitrat	1925	Farg‘ona nusxasini qayta topish va o‘rganish
R. R. Arat	1947 1959	Tanqidiy matn va zamonaviy turkcha tarjima

Q. Karimov	1971	O‘zbekcha ilmiy transkripsiya va talqin
A. Dilachar	1972	Til, tarix va mazmun bo‘yicha maxsus tadqiqot
K. Eraslan, O. F. Sertkaya, N. Yüce	1979	Asarning indeksi
R. Dankoff	1983	Izohli inglizcha tarjima
S. Ivanov	1983	Ruscha badiiy tarjima
A. B. Ercilasun	1984	Fe’l grammatikasi tadqiqoti
B. To‘xliyev	1990 1991	O‘zbekcha ommabop talqin va adabiy tahlil

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Has Hâcib. Kutadgu Bilig I: Metin / nashrga tayyorlovchi R. R. Arat. Istanbul, 1947.

2. Yusuf Has Hâcib. Kutadgu Bilig II: Tercüme / tarj. R. R. Arat. Ankara, 1959.

3. Yusuf Has Hâcib. Kutadgu Bilig III: İndeks / K. Eraslan, O. F. Sertkaya, N. Yüce. Istanbul, 1979.

4. Dankoff, R. Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig): A Turko-Islamic Mirror for Princes. Chicago–London: University of Chicago Press, 1983.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim) / nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. Toshkent: Fan, 1971.

6. Dilâçar, A. Kutadgu Bilig İncelemesi. Ankara, 1972.

7. Ercilasun, A. B. Kutadgu Bilig Grameri: Fiil. Ankara, 1984.

8. Yusuf Balasagunskiy. Blagodatnoye znaniye / tarj. S. N. Ivanov. Moskva: Nauka, 1983.

9. Kaçalın, M. S. «Kutadgu Bilig». TDV İslâm Ansiklopedisi. 26-jild. Istanbul, 2002. https://islamansiklopedisi.org.tr/kutadgu-bilig

10. Karahan, L. «Kutadgu Bilig». Türk Edebiyatı Eserler Sözlüğü. https://tees.yesevi.edu.tr/madde-detay/kutadgu-bilig

11. Yusuf Xos Hojib merosi haqidagi o‘zbekcha tadqiqotlar; qarang: ZiyoNET elektron kutubxonasi. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/49959/5b1640da4eb0f.pdf

12. Tezcan, S. «Kutadgu Bilig Dizini Üzerine». Belleten. 1981, 45(178). https://belleten.gov.tr/tam-metin/1670/tur

13. Kafesoğlu, İ. «Yazılışının 900. Yılı Münasebetiyle Kutadgu Bilig ve Kültür Tarihimizdeki Yeri». Tarih Enstitüsü Dergisi, 1970, 1: 1–38.

14. To‘xliyev, B. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari. Toshkent, 1991.